



# O'zbekiston Oliy ta'lif muassasalarida “Fanlarni ingliz tilida o'qitish” (EMI) bo'yicha metodik tavsiyalar (deskriptorlar).

## O'zbekiston Oliy ta'lif muassasalarida "Fanlarni ingliz tilida o'qitish" (EMI) bo'yicha metodik tavsiyalar (deskriptorlar).

Metodik tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Britaniya Kengashi, Toshkent va O'zbekistonning turli universitetlari vakillaridan iborat mutaxassislar jamoasi tomonidan amalga oshirilayotgan EMI loyihasi tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan (ishtirokchilar to'liq ro'yxat ilova qilingan).

### Mualliflar

Thom Kiddle (NILE, Birlashgan Qirollik konsultanti)  
Jason Skeet (NILE, Birlashgan Qirollik konsultanti)  
Akmal Sodikov (TDYU)  
Alimardon Toshmatov (FarDU)  
Aziz Abdullaev (JIDU)  
Baro Shamsematova (O'XIA)  
Bunafsha Rofieva (TDIUSF)  
Davron Abdullayev (UrDU)  
Dilfuza Mirzakhmedova (O'JOKU)  
Durdon Pulatova (TDPU)  
Farida Abdullayeva (UrDU)  
Gayrat Ibragimov (TDIUSF)  
Gulchekhra Irmukhamedova (JIDU)  
Gumira Baykunusova (TDPU)  
Guzal Eshchanova (TIQXMMI)  
Ibragim Ganiev (TDIUSF)  
Jamilya Ermetova (UrDU)  
Karima Rakhmanberdiyeva (TDSHI)  
Kamola Aripova (O'XIA)  
Matlyuba Sadullaeva (BuhDTI)  
Mukaddas Ogay (TOA)  
Nilufar Begibaeva (Britaniya Kengashi)  
Nilufar Imomova (TDSHI)  
Nilufar Yuldashova (O'JOKU)  
Nozima Muratova (O'JOKU)  
Parvina Omonova (O'JOKU)  
Rano Tuychieva (O'zDJTU)  
Ravshan Boriev (TIQXMMI)  
Rukhshona Musaeva (BuhDTI)  
Rustam Eshniyazov (QDU)  
Sadakat Khojaeva (Britaniya Kengashi)  
Sanobar Ismoilova (FDU)  
Shakhnoza Babajanova (TTA)  
Sharibboy Kayumov (NamMTI)  
Shoira Ibragimova (TTA)  
Ulugbek Negmatov (NamMTI)  
Umida Khaydarova (TDUU)  
Yodgorbek Ismoiljonov (AMI)  
Ziynatdin Tajekeev (QDU)

Maslahatchi:

Abbos Khadjaev (OO'MTV)

Taqrizchilar:

Bakhodir Mirzaev (TIQXMMI)

Farhod Ahrorov (TDIUSF)

Gayrat Matlatipov (UrDU)

Dastur rahbari:

Jamilya Gulyamova

Loyiha medejeri:

Olga Kim

Loyiha koordinatori:

Sadakat Khojaeva

Loyiha baholash menejeri:

Nilufar Begibaeva

# Mundarija

<b>Kirish Qismi .....</b>	<b>4</b>
<b>Fanlarni ingliz tilida o'qitish metodik tavsiyalarning maqsadlari .....</b>	<b>6</b>
<b>Kompetensiya sohasi 1: EMI rejalashtirish .....</b>	<b>8</b>
<b>Kompetensiya sohasi 2: Oldingi bilimlarni faollashtirish .....</b>	<b>9</b>
<b>Kompetensiya sohasi 3: Multimodal ta'limga kiritish va tushunishga ko'maklashish .....</b>	<b>10</b>
<b>Kompetensiya sohasi 4: O'qituvchining tildan samarali foydalanishi.....</b>	<b>12</b>
<b>Kompetensiya sohasi 5: Talabalarning og'zaki nutqini va interfaol munosabatlarni qo'llab-quvvatlash .....</b>	<b>13</b>
<b>Kompetensiya sohasi 6: Talabalarning yozma nutqini qo'llab – quvvatlash .....</b>	<b>14</b>
<b>Kompetensiya sohasi 7: EMI sohasi uchun o'quv – metodik materiallarni ishlab chiqish.....</b>	<b>15</b>
<b>Kompetensiya sohasi 8: Formativ baholash va fikr – mulohaza bildirish .....</b>	<b>17</b>
<b>Kompetensiya sohasi 9: Hamkasblar bilan hamkorlikda ishlash .....</b>	<b>19</b>
<b>Kompetensiya sohasi 10: CPD (Uzluksiz kasbiy rivojlanish) .....</b>	<b>20</b>

# Kirish Qismi

O'zbekiston oliy ta'lif muassasalarida fanlarni ingliz tilida o'qitish (EMI) metodik tavsiyalarning ushbu tizimi O'zbekiston oliy ta'lif muassasalarida faoliyat yuritayotgan EMI o'qituvchilarining pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini tavsiflaydi.

Tuzilma o'nta turli xildagi kompetensiyalarini o'z ichiga oladi. Mazkur kompetensiyalar Britaniya Kengashi, Norvich til va ta'lif instituti (NILE) va O'zbekistondagi oliy ta'lif muassasalari o'rtaqidagi maslahat kengashi va muzokaralar natijasida yuzaga kelgan. Bundan tashqari, tuzilma O'zbekistondagi oliy ta'lif muassasalarida EMI dasturlarini amalga oshiruvchi EMI va EAP (English for Academic Purposes - Ilmiy maqsadlar uchun o'rganiladigan ingliz tili) o'qituvchilari ishtirokida tuzilgandir.

Ushbu doiradagi o'nta kompetensiya uchta umumiyligida pedagogik va kasbiy sohalarga qarab bo'linadi: EMIni rejalashtirish; EMI amalga oshirish; EMI uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD).

Uchta majburiyatlar va tegishli o'nta kompetensiya sohalari quyidagicha tashkil etilgandir:



## EMI rejalashtirish

Ushbu birinchi kompetensiya sohasi EMI o'qituvchisi o'z darslarini qanday rejalashtirishiga qaratilgandir. Bu ta'lif olish modellari va ta'lif tamoyillaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.



## EMI – fanlarni ingliz tilida o'qitishni amalga oshirish

Keyingi sakkizta kompetensiya yo'naliishi EMI – fanlarni ingliz tilida o'qitish amaliyotining quyidagi jihatlariga qaratilgan:

- Oldingi bilimlarni faollashtirish
- Multimodal ta'lifdan foydalanish va yo'naltirish
- O'qituvchining tildan foydalanishi
- Talabalarning taqdimat qilishlari va o'zaro munosabatini qo'llab-quvvatlash
- Talabalarning yozma nutqini qo'llab-quvvatlash
- EMI uchun materiallarni ishlab chiqish
- Formativ baholash va fikr-mulohaza berish
- Hamkasblar bilan hamkorlik



## EMI uchun CPD (Uzluksiz Kasbiy Rivojlanish)

Ushbu so'nggi kompetensiya sohasi o'qituvchi o'zining malakasini oshirishi ustida ishlashiga qaratilgandir. Ushbu soha, o'qituvchilarning EMI sohasidagi ta'lif va yondashuvlarga bo'lgan tanqidiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

EMI uchun pedagogik va kasbiy kompetensiyalarning tavsiflari yuqorida ko'rsatilgan o'nta kompetensiya yo'nalishi bo'yicha tuzilgan bo'lса-da, shuni yodda tutishimiz lozim- bir sohadagi kompetensiya boshqa sohalardagi turli kompetensiyalar bilan bir-biriga mos kelishi va uzviy bog'liq bo'lishi ham mumkin.

Har bir kompetensiya sohasi, shuningdek, soha ichidagi kompetensiyalar raqamlangandir. Bu ushbu tizimdan muntazam ravishda foydalanuvchi shaxslarga muayyan kompetensiyalarga murojaat qilishda yordam berish va ma'lum bir ierarxiyani (ustuvorlik darajasini), yoki qat'iy tartibni ifodalamasligi yoki aks ettirmasligi haqida ma'lumotdir.

EMI uchun ushbu pedagogik va kasbiy malaka tavsiflari yuzma-yuz, onlayn va gibrild shakldagi ta'lim va bilim olishda qo'llanilishi mumkin.

Butun tuzilmada EMI o'qituvchisi atamasi kompetensiyalarning pedagogik jihatini ifodalash uchun ishlatilgan. "Dars" va "sinf" atamalari ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot yoki boshqa har qanday ta'lim usuli bo'lsin, ta'lim mazmunini tavsiflash uchun umumiy atamalar sifatida ishlatiladi.

## **Fanlarni ingliz tilida o'qitish metodik tavsiyalarning maqsadlari**

Fanlarni ingliz tilida o'qitish (EMI) bo'yicha metodik ko'satmalar tizimi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga EMI o'qituvchilari o'z faoliyati davomida rivojlantirishi kerak bo'lgan asosiy pedagogik va kasbiy kompetensiyalarning tavsiifini taqdim etadi.


Quyidagi EMI ta'lim va kasbiy malaka tavsiflari ta'lim muassasalariga ham dastak bo'lishi mumkin:

- EMI dasturlarini amalga oshirish doirasida professional muloqotga yo'nalish.
- EMI o'qituvchilarining malakasini oshirishni rejalashtirish.
- EMI o'qituvchilarini tayyorlash maqsadlarini shakllantirish.
- EMI o'qituvchilarining uzuksiz kasbiy rivojlanishiga rahbarlik qilish va qo'llab-quvvatlash.
- Ta'llim muassasasida rivojlantirish uchun pedagogik amaliyotning yo'nalishlarini aniqlash va ustuvorlik jihatlarini aniqlash.
- EMI o'qituvchilarini ishga qabul qilish va tanlash jarayoni haqida ma'lumot berish.
- Darsni kuzatish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash (jumladan, EMI o'qituvchilari tomonidan ilg'or tajribali o'qituvchilarni darslarini kuzatish va dars tahlili).
- Muassasada EMI o'qituvchilarining pedagogik va kasbiy kompetensiyalari haqida xabardorligini oshirish.

Ushbu tuzilma, shuningdek, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida malakasini muntazam oshirib kelayotgan qator EMI professor-o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu malakali professor – o'qituvchilar quyidagi pedagogik va kasbiy EMI kompetensiya tavsiflaridan unumli foydalanishlari mumkin:

- Ularning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va belgilab olish.
- Aniq ifodalangan va dastlab aniqlangan kasbiy rivojlanish ehtiyojlari uchun institutsional dastak olish.
- EMIda kasbiy malakani muntazam ravishda oshirish, shuningdek, shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish usullari.
- Karyera va shaxsiy kasbiy rivojlanish uchun maqsad va harakatlarni belgilash.
- Hamkasblar bilan professional hamkorlikni yo'lga qo'ysih va kasbiy rivojlanish bo'yicha hamkasblarning fikr-mulohazalarini qo'llab-quvvatlash.
- Professor – o'qituvchilarning bandlik sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirish.

Ushbu tuzilmaning maqsadlari, shuningdek, institutsional va individual darajadagi uzluksiz kasbiy rivojlanish doirasi bilan bog'liq bo'lib, unda ushbu doiradagi uchta umumiy kasbiy mas'uliyat bir-biri bilan quyidagi tarzda uzviy bog'langan:



# Kompetensiya sohasi 1: EMI rejalashtirish

Ushbu kompetensiya sohasi EMI o'qituvchisi o'z darslarini qanday rejalashtirishiga qaratilgan. Bunga bilim olish nazariyasi va modellari, shuningdek, ushbu rejalashtirish uchun samarali EMI ta'lif amaliyoti tamoyillari ham kiradi.

Rejalashtirish, shuningdek, rejalashtirish jarayonini xabardor qilish uchun talabalarning ta'lif olish ehtiyojlari - lingvistik, kognitiv va affektiv - ma'lumotlarni to'plash shular jumlasidandir. Shuningdek, EMI o'qituvchilarini, talabalarning bilim olishi va ta'limga tegishli fikr-mulohazalarni doimiy ravishda to'plab boradi, bu esa keyinchalik o'qituvchining EMI bo'yicha olib borayotgan rejalashtirish ishlarida ishlatalishi mumkin.

EMI ni rejalashtirish paytida EMI o'qituvchisi quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

- 1.1. Real va samarali ingliz tili ta'lif dasturini yaratish maqsadida mavjud ona tili ta'lif dasturi mazmuni va maqsadlarini o'z fanlari bo'yicha sharhlashi va moslashtirish;
- 1.2. EMIni rejalashtirishda talabalarning ta'lif ehtiyojlarini aniqlashda ma'lumot to'plash maqsadida - lingvistik, kognitiv va affektiv ehtiyojlar tahlilini o'tkazish;
- 1.3. SMART (aniq, o'lchanadigan, amalga oshish mumkin bo'lgan, tegishli va vaqtini to'g'ri taqsimlagan holda) ta'lif maqsadlarini yozish;
- 1.4. Tilni o'rganishga yo'naltirilgan o'quv maqsadlarini (agar foydali va tegishli bo'lsa) va fanni o'rganish maqsadlarini ifodalash;
- 1.5. Talabalardan yakka darsda yoki darslar ketma-ketligida ta'lif maqsadlariga erisha olishi mumkinligini aniqlash;
- 1.6. talabalar bilan ta'lif maqsadlarini o'rtoqlashish va talabalarning ta'lif maqsadlarini tushunishlarini tekshirish uchun tegishli texnikadan foydalanish;
- 1.7. Talabalarning mavzulari va ta'lif ehtiyojlariga qarab, talabalarga yo'naltirilgan turli yondashuv va usullarni tanlash;.<sup>1</sup>
- 1.8. O'qitish usullari va uslublarini, ta'lif materiallarini hamda baholash topshiriqlarini tanlashda talabalarning turli lingvistik, madaniy, diniy va ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishini hisobga olgan holda inklyuzivlikni saqlab qolish;
- 1.9. Tegishli ta'lif nazariyasi va modellaridan hamda samarali EMI pedagogik amaliyoti tamoyillaridan o'qitish, bilim olish va baholash faoliyati va maqsadlari bilan ta'lif ketma-ketligini rejalashtirish;

---

<sup>1</sup> Misol uchun, ba'zi mavzular uchun "teskari o'rganish" (flipped learning) yondashuvini (dars mavzusi oldindan uy vazifa sifatida berib boriladi) va ba'zi mavzularga ko'proq mos keladigan ma'ruba yondashuvini tanlash.

- 1.10. Kurs davomida va oxirida talabalarning tushunishi va o'zlashtirishini tekshirishning tegishli usullarini rejalashtirish;
- 1.11. Talabalarning fikr-mulohazalarini muntazam ravishda jamlab borish va undan EMI rejalashtirish maqsadida ma'lumot berish uchun foydalanish.

## Kompetensiya sohasi 2: Oldingi bilimlarni faollashtirish

Ushbu kompetensiya sohasi bilan bog'liq o'qitish amaliyoti EMI o'qituvchilari o'z talabalarining oldingi bilimlari va tajribasini qanday o'rGANISHI va rivojlantirishiga qaratilgan: bu talabalarning mavzu bo'yicha oldingi bilimlarini, shuningdek, ularning til bilan bog'liq bo'lgan oldingi ta'sirini o'z ichiga oladi. Agar kerak bo'lsa, o'qituvchilar talabalarga ingliz tilida oldingi bilimlarini ifodalashda yordam berishadi. Oldingi bilimlarni faollashtirish ta'lim boshida, shuningdek, ta'lim olish zarur bo'lgan boshqa paytlarda (masalan, videoni ko'rsatish yoki matnni o'qishdan oldin topshiriq oldidan bosqichning bir qismi sifatida) sodir bo'ladi.

Talabalarning oldingi bilimlarini faollashtirish maqsadida EMI o'qituvchisi quyidagilarni qilishi lozim:

- 2.1. Talabalardan mavzu bo'yicha nimalarni bilishlarini so'rash;
- 2.2. Talabalarning keyingi dars mazmunini tushunishi uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlarini aniqlashga yordam berish;
- 2.3. Talabalarga o'tilgan mavzu va yangi mavzu o'rtasida bog'liqlikni ko'rsatishga yordam berish;
- 2.4. Mavzuga oid til va undan foydalanish bilan talabalarni dastlabki tanishtirishni faollashtirish;
- 2.5. Sinfda ijobiy madaniyatni yaratib, talabalar olgan bilimlarini boshqalar bilan o'rtoqlashishi uchun poydevor yaratish;
- 2.6. Talabalarning olgan bilimini baholash va fikr mulohaza bildirish;
- 2.7. Talabalarni darsga oldindan tayyorlaydigan topshiriqlardan foydalanish;
- 2.8. Talabalarning avvalgi olingan bilim va ko'nikmalarini faollashtirish uchun og'zaki nutq bo'yicha mashqlar va topshiriqlardan foydalanish.

# **Kompetensiya sohasi 3: Multimodal ta'limga kiritish va tushunishga ko'maklashish**

Ushbu kompetensiya sohasida o'qituvchilar talabalarga yangi kontent va g'oyalarni tushunishga yordam berish uchun multimodal materiallardan - matnlar, rasmlar, real obyektlar, videolar, shuningdek og'zaki chiqishlaridan foydalanadilar. Ushbu kompetensiya sohasi bilan bog'liq boshqa o'quv strategiyalari talabalarga yangi kontent va g'oyalarni tushunishga yordam berish uchun turli xil materiallardan (masalan, "aqliy hujum" metodi, jadvallar, grafik va diagrammalar) foydalanishni o'z ichiga oladi. Interfaol ta'limga asoslangan topshiriqlar ham talabalarga yangi mavzu mazmuni va kontentini tushunish va qayta ishslash uchun yordam beradi.

Talabalar dars materialini tushunish maqsadida EMI o'qituvchisi quyidagilar bilan yordam berishi mumkin:

- 3.1. Mavzu talablari va talabalarning o'rganish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda darsni joriy qilish uchun eng mos yondashuv va uslubni tanlash (masalan, ba'zi mavzular uchun muqobil o'qitish yondashuvini va boshqa mavzularga ko'proq mos keladigan ma'ruzalarga yondashuvni tanlashi);
- 3.2. Talabalarning dars materiallarini samarali o'zlashtirishini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli xil materiallardan foydalanish, jumladan: matnlar, tasvirlar, real obyektlar va predmetlar, video materiallar, modellar va hokazo;
- 3.3. Dars kontenti va ma'lumotlarini turli xil materiallardan foydalangan holda bir nechta bosqichda taqdim etish, masalan: vizual (tasvirlar, video materiallar), audio (musiqa, yozib olingan ovozli tasmalar), imo-ishoralar (harakatlar, yuz ifodalari orqali);
- 3.4. Talabalarni til ko'nikmalari bilan tanishtirish, jumladan, ularni universitetda mavjud bo'lgan qo'shimcha ma'lumotnomalar va manbalarga yo'naltirish;
- 3.5. Darsslarni bosqichma bosqich qo'shimcha materiallar bilan hamohang ravishda o'tishni ta'minlash va talabalarga ushbu bosqichlarni obdon tushuntirib berish;
- 3.6. O'quv materiallarini tayyorlashda ta'limgagi mavjud turli xil ta'lim uslublarini hisobga olish;
- 3.7. Talabalarga material ma'lumotlarini oson tushunishlariga ko'maklashish va topshiriqlarni interfaol mashqlar va vazifalar orqali yangi kontent va g'oyalarni tushunishlarini ta'minlash;
- 3.8. Talabalarga yangi kontent va g'oyalarni interfaol usullar orqali foydalanish (masalan: suhbat - munozara guruqlarini tashkil etish; savol-javoblar uchun vaqt ajratish; talabalardan dars ohirida mavzuni egallaganlari haqida bilib olish va hokazo);

- 3.9. Talabalarning tushunishini tekshirish va darsni qay darajada egallaganliklarini bilish uchun samarali savollar tuzish va ularni taqdim etish;
- 3.10. Dars kontenti va g'oyasini tashkillashtirish va bilish uchun turli xil ta'limga materiallardan foydalanishni yo'lga qo'sih;
- 3.11. Talabalarga eslatmalarni (konspektlarni) qayd qilib borishga o'rgatish, tartibga solish va muhim ta'limga shakllarini aniqlashga o'rgatish.

## Kompetensiya sohasi 4: O'qituvchining tildan samarali foydalanishi

Avvalambor, EMI o'qituvchilari talabalarining tilga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida ustoz sifatida tildan unumli foydalana olishi va lozim topsa kerakli o'zgartirishlar krita olishi mumkinligini namoyish eta olishlari lozim. O'qituvchining tildan foydalanishidagi ushbu modifikasiya (kerakli bo'lgan o'zgartirishlar) quyidagilarni o'z ichiga oladi: og'zaki nutq tezligini moslashtira olishi; o'qituvchining nutq ravonligini qo'llab-quvvatlash uchun og'zaki bo'lImagan usullardan, shu jumladan imo-ishoralardan foydalanishi; talabalarning tushunishi uchun so'z boyligini moslashtirishi (bu usul ona tili va horijiy tillar bilan birlashtirishda ishlataladigan tarjima strategiyalarini ham o'z ichiga olishi mumkin). Ushbu kompetensiya sohasi nutq belgilardan foydalangan holda (masalan, o'qituvchi ma'ruza paytida ishlatadigan tilni turli xil usullardan ravon foydalana olishini ham o'z ichiga oladi.

Ingliz tilida so'zlashayotganda EMI o'qituvchisi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- 4.1. Nutq tezligini talabalarning tushunish darajasiga moslashtira olish;
- 4.2. Nutqini qo'llab-quvvatlash maqsadida og'zaki bo'lImagan usullardan, shu jumladan imo-ishoralardan to'g'ri foydalanish;
- 4.3. Muhim ta'lif texnologiyalarini ta'kidlash maqsadida til, intonatsiya, urg'u va og'zaki bo'lImagan usullardan unumli foydalanish;
- 4.4. Talabalarning tushunish darajasini moslashtirish maqsadida ular foydalanadigan lug'atdan foydalanish;
- 4.5. Ingliz tilida biror narsani qanday aytishiga yoki tushintirib berishga qiyalsasa, yoki talabalarning tushunishini qo'llab-quvvatlash maqsadida kompensatsiya strategiyalaridan foydalana olish (masalan: izohlash; ona tilida to'liq ifodalovchi iborani taqdim etish);
- 4.6. Talabalarga tushunishga yordam berish uchun jumlalarni samarali iboralar bilan tuzish (masalan, "birinchi", "keyin", "va nihoyat" kabi iboralar va bog'lovchilar bilan boyitish);
- 4.7. Talabalarning tushunishini nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash maqsadida savol berishlari va umumlashtirishlari uchun bor imkoniyatlarni ishga solish;
- 4.8. Og'zaki nutqini (masalan, ma'ruza) aniq bo'limlarga, shu jumladan bo'limdan bo'limga o'tishni namoyish qilish uchun tegishli signal so'zlardan va birikmalardan unumli foydalanish.

# **Kompetensiya sohasi 5: Talabalarning og'zaki nutqini va interfaol munosabatlarni qo'llab-quvvatlash**

EMI sohasida ta'lif berish va bilim olish kontekstida talabalarning og'zaki nutqini qo'llab-quvvatlash, talabalarga mavzuga bog'liq bo'lgan so'z boyligidan foydalanish va tilda so'zlashishga yordam berish, talabalarga turli auditoriya va maqsadlar uchun rasmiy va norasmiy tarzda so'zlashishga yordam berish maqsadida interfaol usullardan foydalanishlariga ko'maklashish va topshiriqqa asoslangan til o'qitish o'ta muhimdir. EMI talabalariga tilni o'rgatishda kommunikativ yondashuv texnologiyalaridan unumli foydalangan holda, turli xil ta'lif metodlaridan, jumladan skafolding modelidan foydalanish ham ushbu kompetensiya sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi (nutq ramkasida mavzuga asoslangan terminologiya, namunali iboralar, funktional birikma yoki jumlalardan unumli foydalanishlari o'ta muhimdir).

Talabalar bilan kommunikativ muloqotni qo'llab-quvvatlash uchun EMI o'qituvchisi quyidagilarni bilishi lozimdir:

- 5.1. Talabalarga ingliz tilini o'qitishda kommunikativ va interfaol yondashuv texnologiyalaridan va topshiriqqa asoslangan mashqlardan foydalanish (masalan, o'yinlar, topshiriqqa asoslangan mashqlar va hayotiy vaziyatlardan olingan rolli o'yinlar va hokazolar);
- 5.2. Talabalar interfaol, topshiriqqa asoslangan mashq va vazifalarda ishtirok etishda o'zlarini qulay his qilishlari uchun ijobiy sinf madaniyatini yaratish;
- 5.3. Talabalarning og'zaki nutqini qo'llab-quvvatlash uchun kommunikativ ramkalardan foydalanish (masalan, talabalarga fanga oid terminologiya va funktional tildan foydalanishga yordam berish);
- 5.4. Talabalarning fanga oid terminologiya haqidagi bilim va tushunchalarini muntazam ravishda tekshirib borish;
- 5.5. Darslarda qiziqarli va mazmunli kommunikativ mashqlarni qo'llash orqali talabalarni muloqot qilishga va savollar berishga undash;
- 5.6. Mavzuga aloqador lug'atdan faol ishlatalish maqsadida kommunikativ mashqlardan foydalanish;
- 5.7. Talabalarga berilgan mavzuni turli auditoriya va maqsadlarda, norasmiy va rasmiy ravishda nutq so'zlashni mashq qilish imkoniyatini berish va taqdimot ko'nikmalarini shakllantirish;
- 5.8. Talabalarning og'zaki nutq takomillashini nazorat qilib borish.

## **Kompetensiya sohasi 6: Talabalarning yozma nutqini qo'llab – quvvatlash**

Ushbu kompetensiya sohasi talabalarning akademik yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish usullariga e'tibor qaratadi: masalan, yozish ramkalari yoki "grafik organizatorlar" (diagrammalar, jadvallar, "aqliy hujum" texnikasi), shuningdek, namunaviy matnlar yordamida talabalarga yozishni tartibga solishga yordam berish va hokazo. EMI o'qituvchilari, shuningdek, talabalarga yozishning turli bosqichlarida ("aqliy hujum", g'oya va fikrlarni tartibga solish, loyihalash, tahrirlash) yordam berishlari kerak.

Talabalarning yozma nutqini shakllantirishi uchun EMI o'qituvchisi quyidagilardan boxabar bo'lishi lozim:

- 6.1. Yozish jarayoni bo'yicha ko'rsatma berishi, jumladan, yozish ko'nikmasining turli bosqichlari strategiyalari bilan tanishtirish ("aqliy hujum" texnikasidan foydalanish, g'oya va fikrlarni tartibga solish, loyihalash, tahrirlash metodlaridan foydalanish).
- 6.2. Talabalarga yozish ko'nikmasini tartibga solishda yordam berish maqsadida yozish ramkalari yoki "grafik organizatorlar" (diagrammalar, jadvallar, "aqliy hujum" texnikasi), shuningdek namunaviy matnlarni yaratish;
- 6.3. Talabalarga fanlarni o'rغاishda autentik yozma matnlardan foydalanib namuna sifatida ishlatish;
- 6.4. Talabalarga yozma nutq tilda qanday foydalanishi mumkinligini ko'rsatib berish, jumladan, talabalarning turli xil janrlar va yozuv ko'nikmasi qoidalari haqida xabardorligini oshirish;
- 6.5. Talabalarning yozma ishlarini baholash uchun aniq baholash mezonlarini ishlab chiqish va talabalarning ushbu mezonlardan boxabar bo'lishini ta'minlash.

# **Kompetensiya sohasi 7: EMI sohasi uchun o'quv – metodik materiallarni ishlab chiqish**

O'quv – metodik materiallarni ishlab chiqish EMIning o'ziga xos ta'limga kontekstlariga materiallarni qanday moslashtirish mumkinligini va ular boshidan qanday yaratilganligini o'z ichiga oladi. Moslashtirish va ishlab chiqish tegishli tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak: masalan, vizual ko'rgazmali materiallardan va qurollardan foydalanish metodi orqali, o'qitilayotgan tilni talabalarga yengil usullar bilan tanitish orqali va topshiriqqa asoslangan til o'qitish metodlaridan foydalanish va hokazo. EMI ta'limga dasturi talabalarga ingliz tilidagi materiallar va turli vositalar orqali o'rganishni qo'llab-quvvatlashi kerak. Misol uchun, o'quv – metodik materiallari tilni tushunish uchun dastak (yordam) talab qilishi mumkin, xususan lug'atdan foydalanish shular jumlasidadir. EMI materiallarini ishlab chiqish jarayoni alohida bosqichlarni o'z ichiga oladi: materiallarni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish, baholash va takomillashtirish.

EMI o'quv – metodik materiallarini ishlab chiqish uchun EMI o'qituvchisi quyidagilardan boxabar bo'lishi lozim:

- 7.1. EMI o'quv rejasida/dasturida ko'rsatilgan ta'limga maqsadlariga, talabalarning ta'limga ehtiyojlari va tajribalariga javob berish uchun EMI o'quv - metodik materiallarni ishlab chiqish va moslashtirish;
- 7.2. EMI o'quv - metodik materiallarini ishlab chiqish va moslashtirish (masalan: vizual ko'rgazmali materiallardan foydalanish, o'qitilayotgan tilni talabalarga yengil usullar bilan tanitish orqali va topshiriqqa asoslangan til o'qitish metodlaridan foydalanish va hokazo).
- 7.3. Talabalarni turli xil ta'limga faoliyat turlariga jalb qilish va dastak bersih maqsadida EMI o'quv dasturi materiallarini ishlab chiqish va moslashtirish (masalan: o'ziga rom etadigan ranglar bilan boyitilgan vizual materiallar va illyustratsiyalardan foydalanish; ko'rgazmali qurollardagi oq rangli bo'shliqdan to'g'ri foydalanish; qiziqarli va interfaol mashqlar va topshiriqlar orqali; turli xil ishonchli resurlardan olingan qiziqarli matnlar bilan boyitish va hokazo).
- 7.4. EMI o'quv - metodik materiallari mazmuni va kontentini qiziqarli va dolzarb ishlab chiqish va moslashtirish (masalan: talabalarni qiziqtiradigan mavzularni tanlash va ulardan foydalanish; yangi va hozirgi kundagi dolzarb mavzulardan foydalanish; mahalliy va xalqaro resurslardan unumli foydalanish va hokazo);
- 7.5. Aniq maqsad, vazifa va topshiriqlarni (masalan, keys – stadi (amaliy holatni o'qitish) metodi va muammoli ta'limga texnologiyasi) o'z ichiga olgan EMI o'quv - metodik materiallarini ishlab chiqish va moslashtirish;
- 7.6. Kommunikativ ta'limga maqsadlariga yo'naltirilgan EMI o'quv - metodik materiallarini ishlab chiqish va moslashtirish (masalan: Information Gap

(ma'lumot almashinuv) mashqlari va guruhlarda hamkorlikda ishlash mashqlari orqali; talabalarga taqdim etilgan matn va audio manbaalardan so'ng qo'llaniladigan kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiruvchi mashqlardan keng va unumli ravishda foydalanish va hokazo);

- 7.7. Tilni tushunishni qo'llab-quvvatlash maqsadida EMI o'quv - metodik materiallarini ishlab chiqish va moslashtirish (masalan, lug'atlar orqali);
- 7.8. Ishlab chiqilgan / moslashtirilgan EMI o'quv - metodik materiallarini sinovdan o'tkazish va baholash (masalan, guruhdoshlarini kuzatish va fikr-mulohazalar orqali), ishlab chiqilgan materiallarni kuchli jihatlarini aniqlab, ishlov berish kerak bo'lgan tomonlarini takomillashtirish;
- 7.9. Hamkasb o'qituvchilarga materiallar haqida fikr bildirish va ulardan kasbiy fikr-mulohazalarni olish;
- 7.10. Materiallarni baholash asosida ishlab chiqilgan / moslashtirilgan EMI o'quv - metodik materiallarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish.

## **Kompetensiya sohasi 8: Formativ baholash va fikr – mulohaza bildirish**

Ushbu kompetensiya sohasi EMI o'qituvchilari o'z talabalarining taraqqiyotini qanday kuzatishi va qo'llab-quvvatlashi bilan bog'liq. Bu talabalarni o'z yutuqlari va o'z-o'zini baholash imkoniyatlari haqida fikr almashishni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. EMI o'qituvchilari o'z talabalarining bilim olishini qo'llab-quvvatlashi uchun turli xil savollardan (masalan, Suqrot metodidan foydalanib savol so'rash) qanday foydalanishni bilishlari kerak.

EMI darslariga formativ baholashni kiritish uchun, EMI o'qituvchisi quyidagilardan boxabar bo'lishi lozim:

- 8.1. talabalar o'zlashtirishida kamchilik va muammolar borligini aniqlash maqsadida, darsdan so'ng va o'tilgan mavzular bo'yicha talabalarining taraqqiyotini kuzatib borishi;
- 8.2. Maqsadli formativ baholashdan (masalan, ko'p tanlovlari savollardan tuzilgan test) talabalarining bilim va o'zlashtirishidagi kamchiliklarni aniqlash maqsadida foydalanishi;
- 8.3. Talabalarining taraqqiyotini tekshirish va qo'llab-quvvatlash uchun turli xil savollardan (masalan, Suqrot metodidan foydalanib savol so'rash) foydalanish;
- 8.4. Dars mobaynida talabalar bilimida mavjud kamchiliklar va nuqsonlarni aniqlash va ushbu aniqlangan muammolarni yechish uchun talabalarining ta'lif ehtiyojlariga qarab dars rejasiga o'zgartirishlar kiritish;
- 8.5. Ma'lum bir mavzu bo'yicha talabalarining o'zlashtirishini bilish maqsadida turli xil og'zaki va yozma ko'nikmalarga boy mashg'ulotlar va topshiriqlar (masalan, kirish qismida va umumiyligi (tahliliy) mashqlar; kommunikativ topshiriqlar berish) berish;
- 8.6. Talabalarining o'zlashtirishini nazorat qilish va bilim olishlari bo'yicha fikr mulohaza bildirish uchun aniq mezonlarni ishlab chiqish;
- 8.7. Talabalarining o'sishi va egallagan yutuqlarini namoyish etuvchi sohalari bo'yicha individual (yuzma – yuz) va guruhiy fikr-mulohazalarni taqdim etish;
- 8.8. Talabalarga orttirgan yutuqlari haqida o'rinali, xushmuomala va professional tarzda fikr mulohaza bildirish;
- 8.9. Talabalarni ta'lif olishning keyingi bosqichida maqsadli harakatlarni belgilashda qo'llab-quvvatlash;
- 8.10. Talabalarga aniq mezonlardan foydalangan holda bir-birlariga o'z yutuqlari haqida fikr mulohaza bildirishlari uchun imkoniyat yaratish;

- 8.11. Talabalarning shaxsiy muvaffaqiyatini o'z-o'zini baholashi uchun kerakli vositalarni yaratish;
- 8.12. Talabalarning shaxsiy muvaffaqiyatini doimiy ravishda baholashi uchun yordam berish (masalan, konspekt va qaydlar daftari tutishni o'rgatish orqali);
- 8.13. Muntazam ravishda talabalarning muvaffaqiyatlari haqida fikr-mulohazalarini yig'ib borish.

# Kompetensiya sohasi 9: Hamkasblar bilan hamkorlikda ishlash

Ushbu kompetensiya sohasi EMI o'qituvchilari o'rtasida resurslar va o'quv – metodik materiallari bilan o'rtoqlashish usullariga qaratilgan. Fan o'qituvchilari hamkasblari, shu jumladan boshqa fan o'qituvchilari va ingлиз tili o'qituvchilari (jumladan ESP/EAP o'qituvchilari) bilan EMIda talabalarni qo'llab-quvvatlash yo'llarini, shu jumladan ularning bilim olishlari yo'lida zarur bo'lgan til ko'nikmalarini aniqlashda hamkorlik qilishlari mumkin.

Hamkasblar bilan hamkorlik qilish uchun EMI o'qituvchisi quyidagi vazifalarni bajarishi kutiladi:

- 9.1. Qayerda va qanday qilib hamkorlik qilish usullari va hamkasblari bilan ingлиз tili orqali o'quv dasturi asosida o'qitish bo'yicha hamkorlik qilishlari mumkinligini aniqlab olish;
- 9.2. EMI o'quv – metodik resurslari va materiallarini, jumladan, EMI darslarida til ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha g'oya va takliflar bilan o'rtoqlashish;
- 9.3. Hamkasblarning darslarini kuzatish va ularning EMI o'qitish amaliyoti haqida hamkasbliga konstruktiv fikr mulohaza bildirish;
- 9.4. ESP/EAP o'qituvchisidan talabalarni mukammal bilim olishlari uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalaridan foydalanish bo'yicha fikr-mulohaza va yo'l-yo'riq olish maqsadida EMI darslarini kuzatishga muntazam ravishda taklif qilish;
- 9.5. EMI darslarida o'qitish jarayoni haqida talabalarning fikrlarini bilish uchun hamkasb o'qituvchilar bilan hamkorlikda talabalar o'rtasida muntazam ravishda so'rovnomalar o'tkazib turish;
- 9.6. Hamkasblar o'rtasida tajriba va g'oyalar bilan o'rtoqlashish (masalan: kasbiy ta'lim metodikasi bo'yicha qiziqarli g'oyalar; til va grammatika bo'yicha g'oyalar; kafedraviy o'quv – metodik materialarni ishlab chiqish; kasbiy malaka oshirish bo'yicha seminarlar tajribasi va hokazo);
- 9.7. Kafedra yig'ilishlarida o'quv -metodik materiallar va resurlari bilan o'rtoqlashish, shu jumladan materiallarning mazmuni va til ko'nikmalariga aloqador fikr-mulohazalar va yo'l-yo'riqlar bilan o'rtoqlashish;
- 9.8. Sifatni ta'minlash va sifat nazorati protseduralarida ishtirok etish va ularga hissa qo'shish, masalan, ikkinchi darajali baholash; baholashni standartlashtirish - baholash amaliyotini muhokama qilish va kafedraviy/institutsional baholash siyosatini ishlab chiqish.

# Kompetensiya sohasi 10: CPD (Uzluksiz kasbiy rivojlanish)

Ushbu kompetensiya sohasi o'qituvchining o'z kasbiy rivojlanishi yo'lida nimalarga alohida urg'u berishi kerakligiga qaraydi. Bunga o'qituvchining ta'lim va EMI sohalaridagi yondashuvlarini tanqidiy fikr yuritishini o'z ichiga oladi: masalan, tanqidiy hodisalarni aks ettirish yondashuvidan foydalanish.\* Bu kuzatishlar, shuningdek, EMIda kasbiy rivojlanish uchun aniq maqsadlar va harakatlarni aniqlashni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, EMI o'qituvchilari hamkasblarining darslarini kuzatishlari va EMI o'qitish amaliyoti haqida bir-birlariga fikr mulohazalarini bildirishlari mumkin.

EMIda o'zining doimiy kasbiy rivojlanishiga egalik qilish uchun EMI o'qituvchisi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

- 10.1. EMIda ta'lim yondashuvlarini tanqidiy aks ettira olishi;
- 10.2. Tanqidiy fikr yuritishni tizimli va muntazam ravishda amalga oshirish (masalan, tanqidiy hodisalarni aks ettirish yondashuvidan foydalanish orqali);
- 10.3. EMIda galdag'i kasbiy rivojlanish bo'yicha maqsad va harakatlarni aniq belgilab olish;
- 10.4. O'qituvchilarning EMI kasbiy rivojlanishi va shaxsiy shakllanish bo'yicha rejalashtirish (masalan: muntazam ravishda kerakli ta'lim imkoniyatlarini izlash; o'z fanlari bo'yicha ingliz tilidagi tegishli adabiyotlarni aniqlash va ulardan unumli foydalanish; ilmiy – metodik adabiyotlarni o'qib borish va ular haqida fikr yuritish; ilmiy – metodik konferentsiyalar yoki vebinarlarda faol qatnashish; o'z til ko'nikmalarini oshirish yo'llarini aniqlash va ulardan foydalanish; hamkasblar bilan birgalikda ilmiy - metodik nazorat guruhlarini tashkil etish va ularda faol qatnashish; jamoa yoki kafedra o'qituvchilari material va resurlari bilan o'rtoqlashish va bo'lishish; amaliyotchi so'rovi tsiklini o'tkazish\*\*).
- 10.5. EMIda kasbiy rivojlanish bo'yicha hamkasblar bilan professional hamkorlik qilish va muhokamalarda faol qatnashish.

\* Tanqidiy hodisalarni aks ettirish yondashuvi - bu o'qituvchining darsida sodir bo'lgan muhim voqeaga aytildi. Muhim voqeа deb nomlanishiga sabab - ta'lim jarayonining samarali o'tgani yoki qiyin kechganidir. Hodisa, shuningdek, o'qituvchining e'tiqod va qadriyatları, munosabati yoki o'z xatti-harakatlari haqida o'ylab ko'rishga majburlaydi va undaydi. Undan so'ng, tuzilma quyidagi asnoda shakllanadi, ya'ni, voqeа qanday sodir bo'lganini tasvirlash; hodisaning asosiy ahamiyatini tahlil qilish; mulohaza yuritish natijasida xulosa chiqarish va o'qitish uchun maqsad va harakatlarni aniqlash kabi qadamlar ko'rib chiqiladi.

\*\* Amaliyotchilarning so'rovi (yoki "harakat tadqiqoti") quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi EMI o'qitish bo'yicha muammo yoki savolni aniqlab oladi; ular muammoni/savolni hal qilish uchun darslarda rejalashtirilgan vazifalarni sinab ko'radilar; ular harakat samaradorligini baholash maqsadida turli xil usullardan (masalan, hamkasblarining dars

nazoratlari yoki talabalarning fikr-mulohazalarini yig'ish orqali so'rovnomalar o'tkazadilar) ma'lumotlarni to'playdilar; ular xulosa chiqarish va keyingi bosqichdagi harakatlarni shakllantirish maqsadida ushbu ma'lumotlarni tahlil qilib chiqadilar.